

Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom

“Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom” (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) iqtisodiyotda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori hamda ish haqi va to'lanadigan boshqa to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik to'g'risidagi ma'lumotlarni statistik kuzatuvlar asosida hisoblash tartibini belgilaydi.

Uslubiy nizomni ishlab chiqishda, O'zbekiston Respublikasining mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, Xalqaro mehnat tashkiloti hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning standart va tavsiyalari hamda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanildi.

Uslubiy nizom BMTning Yevropa Iqtisodiy komissiyasi, Yevrostat hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining birlashgan guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va xalqaro darajada tavsiya etilgan Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida tayyorlangan.

1- bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Uslubiy nizom GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga hisoblangan daromadlardan iborat;

real ish haqi – bazis davr narxlaridan kelib chiqib, joriy davrdagi ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar hajmini ifodalaydi;

jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar – O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 371, 372, 373 va

374-moddalariga asosan shakllantiriladi. Bundan tashqari, ushbu to'lovlar qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa ushlanmalarni chegirib tashlashlarsiz olinadi;

mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni – oyning ma'lum bir sanasiga, ya'ni birinchi yoki oxirgi sanasiga ko'rsatiladi. Bunda haqiqatda ishlayotganlar, vaqtincha ishlamayotgan, biroq ishga rasman biriktirilganligi huquqini saqlab qolganlar ham hisobga olinadi. Bitta tashkilotning ichida ichki o'rindosh sifatida rasmiylashtirilgan xodim bir kishi sifatida hisobga olinadi. Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar tarkibiga quyidagilar: O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining tegishli moddalarida keltirilganlar va boshqa mehnatga oid qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda keltirilganlar, shu jumladan, "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksida elektron ro'yxatdan o'tkazilganlar kiritiladi. Quyidagi xodimlar mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar tarkibiga kiritilmaydi: boshqa tashkilotlardan o'rindoshlik bo'yicha ishga qabul qilinganlar; fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar bo'yicha ish bajaruvchilar; tashkilot tomonidan, ishdan ajralgan holda, ta'lim muassasalariga yuborilganlar;

o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq, ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

2- bob. Nominal hisoblangan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish manbalari

3. Nominal hisoblangan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxona va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisobotlariga muvofiq, jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar va o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni (bundan buyon matnda - xodimlar soni) ko'rsatkichlari asosida shakllantiriladi.

4. Nominal hisoblangan ish haqini hisoblashda quyidagi statistika kuzatuv shakllaridan foydalaniladi (quyidagi statistika hisobotlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari asosida shakllantiriladi):

- 1 mehnat shakli (yillik) "Mehnat hisoboti";
- 4 mehnat shakli (choraklik) "Mehnat hisoboti";
- 1 kb shakli (yillik) "Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti"
- 1 nnt shakli (yillik) "Nodavlat notijorat tashkilotning faoliyati to'g'risida hisobot";
- 1 kom (kvartira) shakli (yillik) "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlari faoliyati to'g'risida hisobot";
- 1 fx shakli (yillik) "Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot".

3- bob. Nominal hisoblangan ish haqi hisobi

5. Hududlar kesimida (respublika va hududlar) ma'lumotlarni shakllantirishda barcha jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hisobga olinadi.

6. Iqtisodiy faoliyat turlarining (IFUT-2 Tasniflagichiga muvofiq) seksiya va bo'limlari kesimida ma'lumotlarni shakllantirishda mazkur korxona, tashkilotda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning jismoniy shaxslar mehnatiga haq to'lash tarzidagi daromadlari hisobga olinadi. Ma'lumotlar asosiy faoliyat turi bo'yicha shakllantiriladi.

7. Choraklik davriylikdagi hisoblar qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarida ishlovchilarsiz, yil uchun barcha korxona va tashkilotlar bo'yicha amalga oshiriladi.

8. Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

- **hududlar bo'yicha:**

$$\overline{Wnt}_j = \frac{Ft_j}{\overline{Lt}_j} / t$$

bunda,

$\overline{Wnt}_j$ – hudud bo'yicha nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi;

Ft_j – hudud bo'yicha jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

$\overline{Lt}_j$ – hudud bo'yicha xodimlarning o'rtacha soni;

j – hudud;

t – hisobot davridagi oylar soni.

- iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:

$$\overline{Wnt}_i = \frac{Ft_i}{\overline{Lt}_i} / t$$

bunda,

$\overline{Wnt}_i$ – iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi;

Ft_i – iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud xodimlarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

$\overline{Lt}_i$ – iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xodimlarning o'rtacha soni;

i – iqtisodiy faoliyat turi.

t – hisobot davridagi oylar soni.

9. Real o'rtacha oylik ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$\overline{Wr} = \frac{\overline{Wn}}{I} * 100 \%$$

bunda,

$\overline{Wr}$ – real hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi;

$\overline{Wn}$ – nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi;

I – iste'mol narxlari indeksi.

4-bob. Ish haqi va to'lanadigan boshqa to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik hisobi

10. Ish haqi va to'lanadigan boshqa to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik to'g'risidagi ma'lumotlar mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlarni inobatga olgan holda, soliq va boshqa ushlab qolishlarni chegirib, o'tgan davrdan qolgan qarzni qo'shgan holda hisobot davri oxiriga yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari (xususiy uy-joy egalari shirkatlari, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fermer xo'jaliklari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan tashqari) tomonidan taqdim etilgan 4 mehnat shakli (choraklik) mehnat hisoboti asosida shakllantiriladi.

11. Ish haqi va to'lanadigan boshqa to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik to'g'risidagi ma'lumotlar ish haqini, ta'til to'lovlarini, mehnat shartnomasi bekor qilingandagi to'lovlarni va (yoki) xodimga to'lanishi lozim bo'lgan boshqa to'lovlarni to'lash muddati buzilgan taqdirda 4 mehnat shakli (choraklik) hisobotida aks ettiriladi.

Xodimlarga ish haqi to'lash muddatlari jamoa shartnomasida yoki ichki hujjatda, ular mavjud bo'lmaganda esa mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan muddatlarda belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam bo'lishi mumkin emas. Xodimlarga oylik ish haqi, qoida tariqasida, o'n olti kundan ko'p bo'lmagan tanaffus bilan ikki qismga bo'lingan holda (bo'nakda va qolgan qismi miqdorida) to'lanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ish haqi oyiga bir marta to'lanadigan xodimlarning ayrim toifalari belgilanishi mumkin (Mehnat kodeksining 253-moddasi).

12. Ish haqi va to'lanadigan boshqa to'lovlar bo'yicha, jumladan, mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlarni qo'shib hisoblaganda, muddati o'tgan qarzdorlik (soliq va boshqa ushlab qolishlarni chegirib, o'tgan davrdan qolgan qarzni qo'shgan holda) to'g'risidagi ma'lumotlar har chorakda iqtisodiy faoliyat turlari va hududlar kesimida shakllantiriladi.

13. Ish haqi va to'lanadigan boshqa to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik ko'rsatkichi faoliyat turlari kesimida quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Y = \sum_{i=1}^n D_i$$

bunda:

Y – iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi va to'lanadigan boshqa to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik;

i – iqtisodiy faoliyat turi;

D_i – iqtisodiy faoliyat turlari kesimida jamlangan ish haqi va to'lanadigan boshqa to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik.

14. Ish haqi va to'lanadigan boshqa to'lovlar bo'yicha, jumladan, mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlarni qo'shib hisoblaganda, muddati o'tgan qarzdorlik to'g'risidagi ma'lumotlar asosida quyidagi ko'rsatkichlar shakllantiriladi:

ish haqi va to'lanadigan boshqa to'lovlar bo'yicha, jumladan, mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlarni qo'shib hisoblaganda, muddati o'tgan qarzdorlik (soliq va boshqa ushlab qolishlarni chegirib, o'tgan davrdan qolgan qarzni qo'shgan holda), hisobot davri oxiriga – jami;

shundan, hisob raqamida mablag' yo'qligi sababli.

5- bob. Yakuniy qoidalar

15. Nominal hisoblangan ish haqi hamda ish haqi va to'lanadigan boshqa to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik ko'rsatkichlari hisobi Milliy statistika

qo‘mitasi tomonidan Statistika dasturida belgilangan muddatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

16. Uslubiy nizom iqtisodiyot sohalari va hududlar kesimida to‘liq ish haqi miqdorini baholash hamda ish haqi va to‘lanadigan boshqa to‘lovlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning asosiy ko‘rsatkichlarini shakllantirish va hisoblash maqsadida statistika organlari tomonidan foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu sohada ma‘muriy qarorlar qabul qilishda, tergov va nazoratda, sud muhokamasida va ayrim huquqiy bahs-munozaralarni hal etishda foydalanish mumkin emas.

17. Mazkur Uslubiy nizomni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi / Kuchga kirish sanasi 30.04.2023-y. / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son, <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi / Kuchga kirish sanasi 01.01.2020-y. / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, ... 03.04.2024-y., 03/24/923/0264-son <https://lex.uz/docs/-4674902>
3. O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 11.08.2021- yildagi O‘RQ-707-son “Rasmiy statistika to‘g‘risida” / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.08.2021-y., 03/21/707/0780-son, <https://lex.uz/docs/-5569619>
4. “Mehnat statistikasi to‘g‘risida” Konvensiya (160). Jeneva, 1985- yil 5- iyun (Xalqaro mehnat tashkiloti Bosh konferensiyasining 71-sessiyasida qabul qilingan).
5. 170-son Mehnat statistikasi bo‘yicha tavsiyalar. Jeneva, 1985- yil 25- iyun (Xalqaro mehnat tashkiloti Bosh konferensiyasining 71-sessiyasida qabul qilingan).
6. Milliy hisoblar tizimi (2008). Yevropa hamjamiyati komissiyasi, Xalqaro Valyuta fondi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon banki. Nyu-York, 2009.